



KLINIK ISH O'YINLARINING AMALIY MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AHAMIYATI

Qodirova Sh.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent sh.

Email: shoira.qodirova@tma.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7309525>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2022

Accepted: 07th November 2022

Online: 10th November 2022

KEY WORDS

Pedagogik texnologiya, modellashtirish, klinik ish o'yinlari

ABSTRACT

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi. Maqolada mavzuni o'qitish jarayonida innovatsion texnologiya usullaridan: klinik ish o'yinlarini qo'llash va tadbqiq etish, ular kasbiy bilimlarni berishga, talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish samarasi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularning mustaqil fikrlashi, dalillarga asoslangan tibbiyot asosida ma'lumotlarni tahlil qilishi, o'zini tanqidiy baholash qobiliyatlarini rivojlantirishi taklif etilgan.

"Talabani faqat bilish uchun o'qitish emas, balki asosiy- ishlashni bilish uchun ham o'qitish kerak. Shaksiz, ushbu ko'nikma o'qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi, bilim esa bu yo'lda tashlangan qadamdir..."
professor I.Ya.Konfederatov.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam qadam tashlab borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-

o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturining ustuvor yo'nalishlaridan biri sog'liqni saqlashning birinchi bo'g'ini ni rivojlantirish va dastlabki tibbiy-sanitar yordami ko'rsatish muassasalari tuzilmasini takomillashtirishdir. Umumiy amaliyot shifokori, oilaviy shifokor yangi mutaxassisligi joriy etildi. Ular tomonidan aholi salomatligini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, tashxis qo'yish, kasalliklarni davolash va profilaktika qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Ambulatoriya bo'g'inida mas'uliyatli qarorlarni mustaqil qabul qilish, tezkor va sifatli professional yordam ko'rsatish layoqatiga ega shifokorlarni



tayyorlashning roli kuchaydi. Bu bo'lajak mutaxassisning tayyorligiga yo'naltirilgan ta'limdan odatdagi vaziyatdan muqobiliga o'tishni taqozo etmoqda, ya'ni bunda noaniq holatlarda mutaxassis qanday yo'l tutishi kerakligi nazarda tutiladi. Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Ta'lim tizimi tuzilishidagi keng qamrovli islohotlarni o'qituvchilar ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayonida qo'llash bilan mustahkamlaydi. Buning uchun pedagoglar o'quv jarayoniga texnologik yondashuvni o'rganganib, qo'llagan holda yondashishlari talab etiladi. Ilg'or texnologiyalarning keng rivojlanishi bilan so'nggi yillarda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ta'limni optimallashtirish uchun yangi pedagogik klinik ish o'yin texnologiyalari ham samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Ta'lim tizimi tuzilishidagi keng qamrovli islohotlarni esa o'qituvchilar ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayonida qo'llash bilan mustahkamlaydi. Keyingi yillarda real kasbiy faoliyat holatlarini imitatsion modellashtirish tamoyiliga asoslanib ishlab chiqiladigan "o'yinli" o'qitish usuli keng tarqalmoqda. Ushbu usul dars jarayonida talabalarni faollashtirishga yo'naltirilgan.

Modellashtirish- real xayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini o'quv xonasida yaratish va ularda talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadi. Bular: **klinik ish** o'yinlari,, rolli o'yinlar, konferensiya darslari, syujet darslari hisoblanadi.

Klinik ish o'yinlari: talabalar tomonidan real hayotiy vaziyatlarni o'quv xonasida modellashtirish va rollarni ijro etish orqali ma'lum nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan usuldir. Ushbu usul muayyan ob'ektning murakkab vaziyatlarini - simulyatsiyalarini modellashtirish orqali talabalarning bilimlarini eng samarali ko'nikmalarga aylantirishga yordam beradi. Dinamikada ob'ektning o'zi (bemor) bilan emas, balki uning simulyatsiya modeli bilan turli xil vaziyatlarni ijro etish mumkin bo'ladi. Bunday ko'nikmalar o'quv faoliyati jarayonida rivojlantiriladi, shu orqali ta'lim jarayonini faollashtirish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Klinik ish o'yinlari tavsiya qilishning asosiy usuli tanlangan mutaxassislik bo'yicha amaliy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

Klinik ish o'yinlarining **asosiy maqsadi-** egallanayotgan kasb bo'yicha amaliy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat hamda kasbiy holatlarda aniq va tez yondoshish, to'g'ri qaror qabul qilishni shakllantiradi, bo'lg'usi mutaxassisning faoliyatida real xatoliklarning oldini oladi, bilim va ko'nikmalarni aniqlab, to'g'rilaydi.

Klinik ish o'yinlarining **asosiy qoidasi** – bu ma'lum holat bo'yicha ssenariyni tuzishdir. Ssenariy rejasi – bu voqealikning mantiqan majmuasini aks ettiradi, voqealar ketma – ketligini bayon etadi. Ssenariy rejasining afzalligini "qat'iylik" va stereotipik fikrlashni zaiflashtirishning eng samarali vositalaridan biri, deb hisoblash mumkin. Bu esa talaba bilimi va ko'nikmasini real murakkab vaziyatlarga yo'naltirishda g'oyat samarali hisoblanadi.

Material va uslublar: o'quv xonasi, guruh talabalari, real tibbiy hujjatlar.



Natija:I. Tayyorlash bosqichi:

1.Kurs va mavzuni aniqlash. Klinik ish o'yinlarini yuqori kurslarda va magistratura yo'nalishida o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda asosan shoshilinch holatlarni yoki kam uchraydigan kasaalliklarni o'zida aks ettirgan holatlarni tanlagan yaxshiroq hisoblanadi.

2. O'yinning maqsadini aniqlash:

O'yin davomida qanday bilim va ko'nikmani namoyish etishni shakllantirish.

3. Ish o'yinining markazida ssenariy rejasini tuzish tashkil etadi:

a) kasbiy faoliyatda vaziyatli holatni (real, dolzarb, tipli) tanlash;

b) rollarni aniqlash va ularni mutaxassislik va mansabiga qarab alohida kartochkalarda qayd qilish;

v) harakat joyini (bemor xonadoni, tez yordam mashinasi, qabul bo'limi va boshqalarni aniqlash;

g) real tibbiy hujjatlarni (tahlillar, rentgenogramma va EKG to'plami) tayyorlash, o'yinni fanton, mulyaj jadvallar bilan ta'minlash.

4. Parallel o'rganilayotgan fanlarni o'rganish va bazis bo'limlarni takrorlash .Talabalarga takrorlash uchun adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

II. O'yinning borishi.

Boshlovchi - o'qituvchi o'yinni ma'lum holatdan boshlab, talabalarni rollar bo'yicha taqsimlaydi. Bunday hollarda o'yin turli holatlarda ishtirokchining o'zi va hamrohining harakatlarini baholash imqoniyatini beradi.

III. O'yin muhokamasi.

Ekspertlar barcha o'yin ishtirokchilarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harakatlarini tahlil

qilishadi. Har bir talaba bu haqda o'zining nuqtai nazarini bayon qiladi.

Ekspert guruhi maslahatni bir necha bosqichlar bo'yicha baholaydi:

- axborot yig'ish - anamnez;

- vrach - bemor o'zaro harakati;

- patsientni har tomonlama ko'rikdan o'tkazish;

- patsientni (menedjment) olib borish;

Talabalarning «ekspert» guruhi - qadamma-qadam o'yinning borishini tahlil qilib, kamchiliklarni o'ziga qayd qiladi.

O'yin oxirida o'qituvchi o'z xulosasini aytadi, har bir talabani yutuq va kamchiliklarini izoxlaydi va har bir talabani baholaydi

Xulosa:

1.Klinik ish o'yinlari deontologiya prinsipiga asoslangan kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi, o'qitish motivatsiyasini oshiradi, talabalarda mustaqillik, ishbilarmonlik, tashkilotchilik, kollektivizm, qo'yilgan muammoni yechishda ijodiy yondashishni tarbiyalaydi, ta'limning natijaviyligini oshiradi..

2. "Tematik bemorlar" yo'qligi muammosi yo'qoladi, chunki har qanday kasalliklarga chalingan bemorlarning modellari o'yin davomida jonli ravishda taqdim etilishi mumkin, qisqa vaqt ichida bemor bilan shifokorning kasbiy ishining haqiqiy modeli talabani kelajakda uni shifokor sifatida kasbiy faoliyatida, shu jumladan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash imkonini beradi.

3.Talaba o'quv materialini o'rganishda faol ishtirok etsa va shunday mavqe ta'minlansa, uning mustaqil fikrlashi, o'z qobiliyatidan kuch olishi oshadi va boshqalarning fikrlari bilan ham qiziqadi.

4.Mashg'ulotlarning asosiy texnologik jihati-o'quv jarayonining so'ngi natijalariga yo'naltirilganligini kuzatishdan iboratdir,



ya'ni talabani o'z imkoniyati darajasiga mos, kafolatlangan bilim olishishiga qaratilgan.

Bu esa mashg'ulotlarni o'zlashtirish va talabalar bilimining individuallashuviga olib keladi.

O'qituvchining kasbiy kamolotga erishuvining eng yuqori pog'onasi **pedagogik mahoratini** belgilaydi. Mahoratli o'qituvchi esa hamisha ilg'or tajribalarni tezda o'zlashtirib oladi. Demak, **ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda** zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, har bir

o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlariga monand yondashish, pedagogning o'qitishning usullari va yo'llarining eng tizimini tanlay olgan holda dars jarayonining to'g'ri tashkil etishi muhim rol o'ynaydi. O'qish-o'rganish malaka va ko'nikmasi shakllangan kishigina bilimlarni puxta o'zlashtirishi mumkin. Zotan, pedagogik texnologiya-bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi **loyiha, yaxlitlik, natija**, ya'ni, o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayonidir.

References:

1. Krasilnikova V.A./V.A.Krasilnikova. Informatsionnye i kommunikatsionnye texnologii v obrazovanii. Uchebnoe posobie dlya studentov VUZov. M.: «Dom pedagogiki» 2007g.
2. Alyavi A.L., Qodirova Sh.A., Umarova Z.F. Gospital terapiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan o'qitishning interfaol usullari. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun o'quv-uslubiy ko'rsatma. Toshkent-2010 y.
3. O.Teshaev, Sh.Qosimova Pedagogik texnologiyalarni tibbiyotda loyihalashtirish va rejalashtirish O'quv-uslubiy qo'llanma T.2010 y.
4. Korolkova N. K., Medvedeva L. Z., Volkovich T. K., Pristupa V. V., Morxat M. V. Situatsionno-rol'nye igrы kak metod obucheniya klinicheskim dissiplinam // Vestnik VGMU. 2012.g.
5. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2013.
6. Umarova Z.F., Qodirova Sh.A. Jumanazarov S.B. "Ichki kasalliklar" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyaning qo'llanilishi Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent-2021y.